



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000, Shahrisabz ko'chasi, 3-uy
Telefon: (871) 200-43-43, e-mail: info@uzpsb.uz, web-site: www.uzpsb.uz

"TASDIQLAYMAN"

"O'zsanoatqurilishbank" ATB
Komplayens-nazorat
departamenti direktori A.Yoqubjonov

**"9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" munosabati bilan
tashkil etilgan "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri
YIG'ILISH BAYONI**

2024-yil 12-dekabr

Toshkent shahri

Ochiq eshiklar kuni" tadbirida
ishtirok etishdi:

Boshqaruv Raisi o'rinbosari F.Abduraxmanov

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi
kurashish agentligi vakili

O'zbekiston Respublikasi Huquqni
muhofaza qilish akademiyasi,
korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy ta'lim markazi
vakili

Cert Internatinonal vakili

Tijorat banklari vakillari

Bank hududiy tarkibiy bo'linmalari xodimlari
OAV va jurnalistlar

"Ochiq eshiklar kuni" tadbiri Bank Boshqaruvi Raisi o'rinbosari F.Abduraxmanovning
kirish so'zi bilan boshlandi;

So'ng tadbir dasturiga muvofiq so'z O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lim markazi boshlig'i X.Tursunbekovga,
O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining Korrupsiyani oldini
olish va Komplaens tizimini joriy etish boshqarmasi yetakchi inspektori M.Rasulovga, "Cert
International" sertifikatsion organi rahbari M.Xabibulinga berildi.

Ma'ruzachilar o'z ma'ruzalarida Korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik, Manfaatlar to'qnashuvi holatlari, ularning oldini olish va bartaraf etish choralari, ISO 37001:2016 Xalqaro standar talablari, ushbu standartni joriy etishdan maqsadi haqida batafsil tadbir ishtirokchilariga ma'lumot berildi.

"Ochiq eshiklar kuni" tadbirida "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan ISO 37001:2016 standarti talablariga muvofiq yo'lga qo'yilgan korrupsiyaga qarshi menejment tizimi talablari doirasida olib borilayotgan ishlar sarhisob qilindi.

Tadbir ishtirokchilariga bankda xatarlar xavfini kamaytirishga, manfaatdor tomonlar oldida oshkorlik va ishonchlilikni ta'minlashga, shuningdek muassasa va manfaatdor tomonlarni korrupsiyaning salbiy oqibatlaridan himoyalashga qaratilgan ishlar amalga oshirilayotganligi, shuningdek:

Korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida 83 nafar rahbar xodimlar, shu jumladan Boshqaruv a'zolari "Manfaatlar to'qnashuviga oid" onlayn test sinovlaridan o'tkazilganligi;

Bosh bank va hududiy tarmoqlardan 2136 xodimlar korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi, xodimlar zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlar hamda ularni baholash tizimi bo'yicha o'qitilganligi;

xodimlar o'rtasida test sinovlari o'tkazilganligi, korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati shakllantirilganligi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijasida 7 ta past, 15 ta o'rta va 1 ta yuqori xavf-xatarlar aniqlanganligi;

Bank tizimida korrupsiyaga oid shubhali ma'lumotlarni qabul qilishga mo'ljallangan maxsus aloqa kanallari uzluksiz ravishda faoliyat yuritayotganligi;

Korrupsiyaviy va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar haqida mazkur aloqa kanallari orqali xabar berish mumkinligi, barcha kelib tushgan murojaatlar ko'rib chiqilishi, bunda xabar bergan xodim ta'qibga olinmasligi kafolati mavjudligi haqida bildirib o'tildi.

Bank xodimlari va mijozlarning huquqiy ongi va madaniyatini yanada oshirishga qaratilgan targ'ibot materiallari ko'lamini kengaytirish yuzasidan fikr almashildi.

Korrupsiyaga qarshi
kurashish maxsus boshqarmasi
menejeri



A.Kurbanov